
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumani Quvurboshi mahallasi hududidan Qo'rg'oncha ko'chasini asfaltlashtirish masalasi bilan bog'liq murojaatlari e'lon qilingan edi.

Quvurboshi MFY hududida Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash maqsadida aholini toza ichimlik suvi, elektr energiyasi va ichki yo'llarni asfaltlashtirish bilan bog'liq muammolari hal etilmoqda. Ushbu loyihaga ko'ra hududda 4542 metr ichki yo'llar asfaltlashtirilgan.

Murojaatda tilga olingan Qo'rg'oncha ko'chasining hozirgi xolatida 80 foiz hisobda ichki yo'llari asfaltlashtirilmaganligi tufayli asfalt bo'lmagan qismida asfaltlashtirish ishlari olib borilgan. Murojaatchilarga mahalladagi asfaltlashtirilmagan ko'chalarni "Tashabbusli byudjet", "Mening yo'lim" loyihalari asosida o'zlarining tashabbuslari bilan bosqichma bosqich amalga oshirilishini ma'lum qilamiz.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-29 19:07:21